

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

TONG Yulduzi

2013-yil 29-iyul
N:30 (66935)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

**Qadr-qimmatim, tayanchim
va iftixorimsan,
mustaqil O'zbekiston!**



KOREYALIK BOLALAR — BOLALARGA

V.A. Uspenskiy nomli musiqa litseyining katta zalida navbatdagi xayriya konserti boshlanish arafasida... Sahna pardasi ko'tarildi-yu, zal qarsak ovozigga to'ldi.

Sakkiz yildan buyon ushbu maskan o'quvchilari-yu o'qituvchilari tomonidan o'tkazib kelinayotgan «Bolalar — bolalarga» xayriya konsertining bugungi dasturi yanada maroqli, hayajonli o'tishi kutilmoqda. Chunki tadbirga mehr-e'tibor, parvarishga muhtoj bo'lgan bemor bolalarga yordam qo'lini cho'zish maqsadida Koreya Respublikasining Seul shahrida faoliyat yuritayotgan «Pushkin House» yoshlar orkestri ham tashrif buyurgan-da! Ushbu hamkorlik esa mazkur loyihaning dunyo bolalari qalbidan ham joy ola boshlaganini bildiradi.

Bunday loyiha dunyoning boshqa mamlakatlarida mavjud emasligini mehmonlar alohida e'tirof etishdi. «Pushkin House» yoshlar orkestri rahbari Kim Son Men ta'kidlaganidek, bunday hamkorlik davlatlarimiz orasidagi o'zaro aloqalarning mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Konsertdan tushgan mablag' esa odatdagidek, bemor bolalar uchun dori-darmon sotib olishga sarflandi. Mazkur tadbirning 2012-yildan buyon har oyda o'tkazib kelinayotganini inobatga olsak, yurtimizning bolalari ham muhtojlarga mehr-muruvvat ulashish, yurt uchun xizmat qilish ishtiyoqida yashayotganlarini his qilamiz.

Eng ulug', eng aziz bayramimiz arafasida kim bilan dildan suhbatlashmang, qalbi faxr-iftixorga to'lib, mustaqillik bergan imkoniyatlardan so'zlaydi. Uning bebaho ne'mat ekanligini bot-bot takrorlaydi. Navoiylik tengdoshingiz Shahlo Orziyeva ham erishgan, erishayotgan yutuqlarini Istiqlol sharofatidan deb biladi. Gazetamizning navbatdagi sonida Shahloxon bilan yaqindan tanishasiz.

Sh. MAXMADIYEV olgan surat

MAHORAT MAKTABI

Mustaqillik – ota-bobolarimizning asriy, azaliy orzusi, xalqimizning ulkan yutug'i. U o'z taqdirimizga egalik huquqini berdi. Ma'naviy qadriyatlarimiz, milliy an'analarimizga, qadim urf-odatlarimizga tayanib yashash, yurtimizning behisob boyliklaridan xalqimiz va Vatanimiz manfaatlarini yo'lida foydalanish imkonini yaratdi. Qalbimizda bag'rida ne-ne buyuk allomalarni, olim-u fuzalolarni, daholarni kamol toptirgan shu muqaddas zamin farzandi ekanligimizdan faxrlanish tuyg'usini uyg'otdi, o'zimizga bo'lgan ishonchni, qat'iyatni shakllantirdi. Kelajagimiz egalari uchun imkoniyatlar eshigini keng ochdi.

«Mustaqillik yillarida mamlakatimizda erishilgan yutuqlarning OAVda yoritilishi», O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi siyosiy sharhlovchisi Qobilbek Karimbekovning «O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy sohadagi islohotlarning mazmun-mohiyati», «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi raisining birinchi o'rinbosari Feruza Muhammadjanovaning «Mustaqillik yillarida yoshlarimizning jismonan baquvvat, ma'nan yetuk avlod bo'lib kamol topishiga



Ma'lumki, bunday farahbaxsh kunlar o'z-o'zidan kelgani yo'q. Hurligimiz zamirida qanchadan qancha yurtdoshlarimizning fidokorona mehnati, zahmati yotadi. Istiqolga nimalar evaziga erishilganini, bu bebaho ne'matning mazmun-mohiyatini atrof-dagilarga, ayniqsa, yoshlarga tushuntirish, yurtimizda qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni ta'sirchan uslub va zamonaviy shakllarda xalqimiz orasida, hatto chet ellarda targ'ib qilish biz OAV xodimlari zimmasida. Jamiyatimizdagi

bunday o'zgarishlarni ommaga tahliliy, taqqosiy maqollar orqali haqqoniy tarzda yetkazish uchun jurnalistlarimizdan ma'nan yetuk, bilimli, salohiyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lish, zamonaviy axborot texnologiyalari va xorijiy tillarni puxta bilish talab etiladi.

Yaqinda O'zbekiston Milliy matbuot markazida jurnalistlarning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga oid bilimlarini yanada takomillashtirish maqsadida «Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O'zbekiston!» mavzuga bag'ishlangan o'quv-seminari bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi hamkorligida tashkil etilgan mazkur o'quv-seminarda deputatlar, olimlar, OAV xodimlari, turli idora, tashkilot, muassasa vakillari ishtirok etishdi.

Seminar ishtirokchilari O'zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori Mamatqul Hazratqulovning



berilayotgan yuksak e'tibor» mavzuidagi ma'ruzalarini katta qiziqish bilan tinglashdi.

Qizg'in bahs va munozaralar, savol-javoblar asnosida o'tgan o'quv-seminari OAV xodimlari uchun mahorat maktabi vazifasini o'tadi.

O'z muxbirimiz

Har gal yo'lim Samarqandga tushsa, ko'nglim uning behisob bog'-rog'lari bilan bog'lanib ketadi. Beqiyos yurtimizning qiyosiga qiyos izlayman.

QIYOSINGNI IZLAYMAN, VATAN!

Amir Temur bobomizning davr-u zamonlarida bog'-rog'larga berilgan katta e'tibor aqlimni lol qoldiradi. Nazarimda, bugungi kunda barpo etilayotgan behisob bog'-rog'lar Sohibqiron bobomiz boshlab bergan ezgu ishlarning uzviy davomidir. Shamol kabi yelib borayotgan «Afrosiyob» tezyurar poyezdida keta turib, davr-u zamonlarning qanchalar o'zgarib borayotganini payqagandek bo'laman. Istiqol sharofati bilan yurtimizda misli ko'rilmagan darajada katta o'zgarishlar yuz bergani, berayotgani haqida o'ylasam, qalbim allanechuk faxr va iftixor tuyg'ulariga to'ladi.



Muhtaram Yurtboshimiz 2013-yilni «Obod turmush yili» deya e'lon qilish orqali turmushimizni yanada obod, o'z erkiga ega bo'lgan xalqimizni yanada baxtiyor ko'rishni niyat qilgan bo'lsalar, ne ajab?!

Ayniqsa, biz yoshlarga ko'rsatilayotgan cheksiz e'tibordan ruhlanib, yurtimiz kelajagi qo'limizda ekanligini, Prezidentimiz bot-bot ta'kidlaganlaridek, bilimdon va zukko bo'lishimiz lozimligini qalban his etamiz. O'z bilimi va salohiyatiga ishongan o'g'il-qiz borki, beg'ubor orzularga intilib yashaydi, yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shishni niyat qiladi.

Men ham yurtimizdagi eng nufuzli bilim dargohlaridan biri – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetini tugallab, yoshlarimizga puxta bilim berish uchun bor kuch va imkoniyatlarimni ishga solishga shay turibman. Kelajagi buyuk mamlakatning sadoqatli farzandi bo'lishga ahd qilganman.

Gavhar SIDDIQOVA,
O'zMU talabasi

TA'TILDA HAM BO'SH VAQT YO'Q, –

deyishadi surxondaryolik tengdoshlaringiz.

Chindan ham, ta'tilning ayni qizg'in pallasida Surxondaryo viloyati, Angor tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar markazi o'g'il-qizlar bilan har doimgidan-da gavjumroq. Ta'til kunlariga mazmun bag'ishlash maqsadida markazga qatnayotgan tengdoshlaringiz uchun bir necha to'garaklar ishlab turibdi. Rustam aka Normengliyev rahbarlik qilayotgan bilim va hunar maskanidagi «Yosh jurnalist va notiq», «Yosh musavvir», «Mohir qo'llar», «Gulchilik», «Badiiy gimnastika» kabi to'garaklar bolajonlar ixtiyorida. Surayyo Bobomurodova boshchilik qilayotgan «Gulchilik» to'garagi a'zolari parvarishlayotgan rang-barang gullar barchaning bahri dilini ochadi.



Sevara Boymanova rahbarlik qilayotgan «Yosh jurnalist va notiq» to'garagiga qatnayotgan o'quvchilar kelajakda mohir jurnalist bo'lishning hadisini olishyapti.

Norboy aka Azimov boshqarayotgan «Aviamodel» to'garagi a'zolarining ham yutuqlari talaygina. Ular respublika miqyosida o'tkazilgan qator musobaqalarda qatnashib, faxrli o'rinlarni egallashgan. Jumladan, to'garakning faol a'zolaridan biri Ramazon Mirzayev Jizzax shahrida bo'lib o'tgan «Varraklar sayli»da 2-o'rinni egallab, «Faxriy yorliq» va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

To'garakning boshqa a'zolari ham izlanishdalar. Texnika ixlosmandlari turli ko'rinishdagi samolyot, raketa, kema modellarini yasab, o'zaro bellashishmoqda. Mashg'ulotlardan bo'shagan paytlarida tabiat qo'yniga sayohatlar uyushtirishadi.

Bir so'z bilan aytganda, ular yozni maroqli, mazmunli o'tkazishyapti. Bolajonlar, siz-chi, ta'til kunlaringizni qanday o'tkazapsiz? Shu haqda bizga, albatta, yozib yuboring.

Ozoda TURSUNBOYEVA

«Yurt ozod, turmush obod» insholar va rasmlar tanloviga

FAXRLANSAK ARZIYDI

Tengdoshim, men ham ozod yurtning zar tuprog'ida endigina nish urib, kurtak yozgan siz kabi bir niholman. Siz yurakning butun bo'lmastigi haqida eshitganmisiz? Uning yarmi qayerda ekanligini ham bilasizmi? Turfa hislardan bunyod bo'lgan ko'ngil doimo bir manzil sari talpinishini his qilganmisiz?..

Ko'zlarimiz ul manzilni izlaydi. U o'sha... anavi qirning belida yastanib olgan, mayda tuproqqa belangan tor ko'cha, anhor yoqasida sarv qomatini ko'z-ko'z qilib, soy suvining shovullashiga xirom aylab o'ynoqilayotgan baqateraklar, qirq kokilini zilol suvda erkalanibgina chayayotgan majnuntollar, pastqam derazali, darvozasi yo'q uylar, qo'li ko'ksidan tushmaydigan bug'doy uzli odamlar, qo'lidagi issiq kulchasini suvga botirib, ishtaha bilan yeyayotgan bolajonlar, o'zgacha mehr-la daraxtlarning tagini yumshatayotgan otam, ayvon peshtoqiga in qurgan qaldirg'ochlar, jajjigina ukamning pishillab uxlashi, onamning mehr-la aytayotgan allasi, ayvonda menga atab baxmal ko'rpacha qaviyotgan buvijonim, oydin kechada osmonga betartib sochilgan yulduzlar, jimlikni buzib qurillaydigan qurbaqa, chigirtkaning betinim, ammo quloqqa yoquvchi dilrabo ohangi

meni ohanrabodek o'ziga chorlayveradi. Oyoqlarim ostonasi muqaddas qo'rg'onim – oilam sari yetaklaydi. Axir Vatan ostonadan boshlanadi. Oilam – mening Vatanim. Men Vatan tuyg'usini poydevori mustahkam xonadonimiz, jajji uka-singillarimning charos ko'zlari, ota-onamning mehridan angladim. Bugun baralla aytishim mumkinki, men ozod yurtning ozod farzandiman.

Qarang, tengdoshim, ko'chalarning ravonligini! Oftobning o'tli tafti og'ushida ko'zni qamashtiradiya! Saman otdak harakatlanayotgan avtomobillar yurtimizda ishlab chiqarilgan. Yangi qurilayotgan inshootlar, zamonaviy ko'rinishdagi uy-joylar, maktab, litsey va kollejlilar, maishiy va xo'jalik xizmat ko'rsatish maskanlari, istirohat bog'lari boqib, hali shuurimiz anglab yetmagan fusunkor go'zallikning, ajib jilvadorlikning guvohi bo'lamiz. Bugun yurtimiz yigirma ikki yoshga kirgan azamatdek savlat o'kib turibdi.

Aziz tengdoshim, siz-u bizda yana qancha g'oyalari bor-a?! Ularni amalga oshirib, yurtimizni bundan-da yashnashiga hissa qo'shamiz. Istiqboli buyuk yurtning iqboli porloq dilbandi ekanligimizdan har qancha faxrlansak arziydi.

Shahnoza TOSHQULOVA,
Sirdaryo viloyati, Guliston
I-akademik litseyi o'quvchisi



Hovlimiz kattakon gulzorga o'xshaydi. Kirgan odamning bahri dili ochiladi. Bu yerda gullar qiroli – atirgul, jannat iforli – rayhon, yorqin rangli – namozshomgul, nafis hidli – binafsha, viqorli gultojixo'roz kabi turfa xil gullar o'sadi. Erta bahordan boshlab onam, opam va men gullarni mehr bilan

parvarishlaymiz. Ular mening sirdosh do'stlarim. Yonlariga borsam, go'yo egilib, tebranib salom berishadi. Suv quyib, taglarini yumshatsam, mamnun holda shivirlab, «rahmat» degandek bo'lishadi. Betob bo'lsam, ular ham ma'yus tortib qolishadi. Dardimga go'yo sherik bo'lib, uni yengillashtirishga harakat qilishayotgandek tuyuladi. Ko'chadan charchab kelib gullarimni ko'rsam, g'uborim

GULLARIM



tarqaladi. Quvonchim jo'shib, o'zimni yanada tetikroq his etaman.

Xullas, gullar mening qadrdon do'stlarim!

E'zoza USMONXO'JAYEVA,
poytaxtdagi 34-umumta'lim maktabining
4-sinf o'quvchisi

ME'YOR BO'LGANI YAXSHI

Bugungi kunda o'quvchilarning kitobga bo'lgan mehri, talabi biroz susaygandek, nazarimda. Texnika taraqqiy etgan zamonamizda internetdan istagan kitobimizni topib, undan kerakli ma'lumotni olishimiz mumkin. Ayrim talabalar uy vazifalarini manbalardan osongina ko'chirib olishadi. Bu esa tengdoshlarimizni izlanishdan, o'qishdan biroz chetlashtirib,



tanbal qilib qo'yadi. Buning ustiga, kompyuter qarshisida qancha ko'p o'tirsak, monitordan taraladigan nur salomatligimizga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Olimlarning ta'kidlashlaricha, kitobdan olingan bilim internetdan olinganidan olti barobar ko'proq ongimizda saqlanib qolarkan.

Aziz tengdoshlar, bu fikrlarim bilan zamonaviy texnologiya vositalaridan foydalanmang, demoqchimasman. Kompyuterdan, internetdan me'yorida maqsadli foydalanishimiz, kitob insonning eng yaqin va yaxshi do'sti ekanligini unutmashimiz lozimligini eslatib o'tmoqchiman.

Shodiyabegim SHAROFIY,
Jizzax viloyati

Toshkentdagi Chig'atoy-Oqtepa mahallamizda istiqomat qiladigan Biloliddin boboni bolalar «Hikmatchi bobo», deyishadi. Chindan ham u kishi mahalla bolalarining bobosi bo'lib, ularga hikmat o'rgatishdan charchamaydilar.



HIKMATCHI BOBO

Bir kun darslardan so'ng uyga qaytayotganimda, boboning atrofini bir talay bolalar o'rab olishibdi. Ular orasida mahallamizdagi eng sho'x bolalar ham borligidan quvondim. Bilol bobo o'g'il-qizlarning har biriga bittadan hikmat aytib, yodlatayotgan ekanlar. Men ham chetda qolmadim. Bir necha hikmatlarni yod olganimizdan so'ng kelasi safar tutilmasdan aytib berishimizni tayinlab, biz bilan xayrlashdilar.

Qo'shnilarimizning aytishlaricha, mahallamizdagi eng ko'p to'p tepadiganlar-u kompyuter o'yinlariga berilganlar ham endi bobo bergan «uy vazifalari»ni bajarib, ularning maqtovu-duolarini olishga harakat qilmoqdalar. Hikmatchi bobomiz mingdan ortiq hikmatli so'zlarni bilishdan tashqari, yangilaridan ham yozib turadilar. Biz esa yodlaganlarimizga hayotda ham rioya qilishga so'z beramiz.

Qaniydi, har bir mahallaning mana shunday hikmatchi bobosi bo'lsa!

Robiyaaxon HAYITOVA,
Olmazor politexnika kasb-hunar
kolleji o'quvchisi

BOG'CHADAGI BILAG'ON

Dildoraxon bog'chada, Adashmaydi sanoqdan. O'ngacha sanash uchun, Foydalanar barmoqdan.

Harf o'rganish yo'lida, Alifbe berdi ko'mak. Dildoraxon zehninga, «Balli-ey», demoq kerak.

Ana endi bimalol, Maktabga borsa bo'lar. Bilamanki, har kuni, Besh baho olib kelar.

Komil ota HAKIMOV



«Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanloviga

HAR BIR ASAR – BIR DUNYO

Malika Ergasheva Samarqand viloyati, Narfay tumanidagi 24-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi. «Tong yulduzi» gazetasining doimiy muxlisi bo'lgan Malika o'zining tirishqoqligi, bilimga chanqoqligi bilan tengdoshlari orasida ajralib turadi. U «Yangi avlod – 2011» bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichida she'riyat yo'nalishi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan. 2012-yil «Mustahkam oila – oqibatti bolalar» shiori ostida o'tkazilgan «Oila – mening qutlug' bog'im» tanlovining viloyat bosqichi g'olibi. O'tgan yili «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» Respublika ijodiy ishlar ko'rik-tanlovida, bu yil esa «Kitobsevarlar» Respublika ko'rik-tanlovida faxrli uchinchi o'rinlarni egallagan.



Kitobxonlar suhbatlari hamisha maroqli.

Kitob o'qish orqali sayohat qilish mumkin. Buni tengdoshingiz Malika juda yaxshi biladi. Shuning uchun ham u badiiy, she'riy, ertak kitoblarga tez-tez murojaat qiladi. Kitobsevar qizimiz o'qigan har bir asaridan bir dunyo taassurotlar oladi. Alisher Navoiyning «Hayrat-ul abror», Muhammad Qoshg'ariyning «Yaxshi kishilar odobi», Xudoyberdi To'xtaboyevning «Qasoskorning oltin boshi», Tursunboy Adashboyevning «Orzularim – qo'sh qanot», «O'zbek xalq ertaklari», e-h-e, uning o'qigan kitoblarini birma-bir sanab chiqsangiz, naqd 107 tani tashkil qilgan ekan. Ayni ta'til kunlarida ham u kitob o'qish bilan vaqtini mazmunli o'tkazmoqda. 500 dan ortiq kitoblar jamlangan uy kutubxonasi va

maktab kutubxonasi uning eng sevimli joyi hisoblanadi.

O'qigan kitoblari yuzasidan maktabda tashkil etilgan «Ilhom», «Paxtakor ovozi» gazetasi qoshidagi «Umid g'unchalari» hamda Samarqand viloyati Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi «Sadoqat» to'garagi a'zolari bilan bahs va munozara yuritadi. Ustozlari Rohila opa Odilova, Zebiniso opa Usmonova ana shunday kitobxon shogirdlari borligidan quvonib, unga o'z maslahatlarini berishdan charchashmaydi. Biz esa Malikadek kitobsevar gazetxonlarimiz yanada ko'payishini niyat qilamiz.

Feruza SOYIBJON qizi

Let's learn English!
Ingliz tilini o'rganamiz!

Aziz ingliz tili ixlosmandlari!
Gazetamiz sahifalarida berib borilayotgan ingliz tili saboqlarini qiziqib o'rganayotganingizga hech shubhamiz yo'q. Bugungi sahifamizda so'z lug'atingizni ranglarni anglatuvchi so'zlar bilan boyitmoqchimiz.

COLOURS
RANGLAR

Grey (grey) – kulrang

Green (green) – yashil

Brown (brown) – jigarrang

White (white) – oq

Magenta (magenta) – malina rang

Black (black) – qora

Orange (orange) – olovrang

Blue (blue) – ko'k

Yellow (yellow) – sariq

Dark blue (dark blue) – to'q ko'k

Red (red) – qizil.

Dil OROM tayyorladi

FIKRLASH AZOBI

Dunyoning mashhur adiblaridan biri ulkan kutubxona yo'lagida turib, zamondoshlariga shunday xitob qilgan ekan: «Necha-necha kunlar, uyqusiz tunlar zahmati, qancha aql-zakovat, bardosh bilan izlanishga baxsh etilgan umrlar tevaragimizdagi torgina javonlarda jamlangan».

Darhaqiqat, kitoblar insoniyatning boqiy xazinasidir. Binobarin, ularning dunyoga kelishi oddiy jarayon emas. Bunda ijodkor atalmish zahmatkash insonning ruhiy iztiroblari, qalb og'riqlari, har bir so'zni, har bir jumlaning qog'ozga tushirayotgan paytdagi o'y-fikrlari mujassam. Ta'bir joiz bo'lsa, kitoblarning dunyoga kelish jarayonini «fikrlash azobi», deb atash mumkin.

Ma'lumki, kitob inson hayotida juda muhim o'rin tutadi. Sababi, kitob mutolaasi kishilar ongida dunyoga, odamlarga nisbatan eng to'g'ri mulohazalarni paydo etadi. Kitob – bilimlar kaliti, unda ma'naviy boyliklar jam bo'lgan.

Kitoblar bizga buyuklarning fikrlari bilan tanishish, ularning ko'ngil olamiga sayr qilish imkonini

beradi. Mutolaa onlarida shuurimizda o'sha buyuk zotlarning o'y va fikrlariga hamohang mulohazalar paydo bo'ladi.

Yaxshi kitob uxlab yotgan fikrlarni uyg'otadi. Insonni mushohadaga undaydi. Ular vositasida umrning asl mazmunini topishimiz oson kechadi. Xalqimiz orasida mashhur bo'lgan «Kitob o'qigan insondan yomonlik chiqmaydi» degan hikmat juda sodda tuyulsa-da, uning zamirida teran ma'no mujassam. Inson bir narsani unutmasligi kerakki, kitob o'qish imkoniyati har doim ham bo'lavermaydi. Bolalik, o'smirlilik, yoshlik yillaridagi takrorlanmas imkoniyatlardan foydalanib qolish kerak.

Bu davrda o'qilgan kitoblardan olingan taassurotlar toshga o'yilgan naqsh kabi inson xotirasiga muhrlanadi. Inson ulg'aygani sayin o'qigan asarlarining mohiyatini teranroq idrok eta boradi. Tasavvurlariga oydinlik inadi. Hayot sinovlariga tayyor turishni o'rganadi. Shu ma'noda kitobni beminor murabbiy, deb atash mumkin.

Madina EGAMBERDIYEVA,
Qarshi pedagogika kolleji o'quvchisi

– Kitob o'qish menga hamisha zavq bag'ishlaydi, – deydi Shayxontohur tumanidagi 82-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi Mohir NIG'MATJONOV.

Z. MAMATQULOVA olgan surat

Xabaringiz bor, O'zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlarni jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlardan himoya qilish to'g'risida»gi Qonun loyihasi ishlab chiqildi. Uni ishlab chiqishdan maqsad, bolalar va o'smirlarning jismoniy, ruhiy, axloqiy va ma'naviy tarbiyasiga salbiy ta'sir qiluvchi axborotlar, zo'rvonlik, shafqatsizlik, pornografiya kabi elektron va kompyuter o'yinlari, audio-audiovizual mahsulotlardan himoya qilishdir.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yurtimizdagi internet-kafe, va virtual o'yin zallarining foydalanuvchilarini, asosan, 8-14 yoshli bolalar tashkil qiladi. Shu o'rinda virtual o'yinlarni ikki turga ajratish mumkin:

1. Aqlni charxlovchi, fikrlash qobiliyatini o'stiruvchi.
2. Vahshiylik, zo'rvonlik, qotillik, behayollikni targ'ib qiluvchi o'yinlar.

Birinchi turga kiradigan virtual krossvord, rebus, labirint kabi o'yinlar, tabiiyki, farzandlarimizning bilim va tafakkurini boyitishga, aqliy salohiyatini o'stirishga xizmat qiladi. Biroq, hozirda o'smirlar orasida shiddatli janglar, vahimali otishmalar, zo'rvonlik, behayollikni targ'ib qiluvchi o'yinlarning reytingi yuqori ekanligi nafaqat bizni, balki butun dunyoni tashvishga solayotgan muammoga aylanib ulgurgan. Quyida keltirilgan ayrim o'smirlarning taqdiriga oid ma'lumotlar barchamizni hushyorlikka chorlaydi. Ularning guldek yosh umri aynan mana shu virtual o'yinlar tufayli ayanchli yakun topgan.

1997-yil. AQSHning Kentukki shtatida yashovchi 14 yoshli Maykl Kerning uch nafar maktabdoshini otib o'ldiradi, yana besh nafarini og'ir yarador qiladi. Onasining aytishicha, o'smir qonli sahnalarga boy «Doom», «Quake», «Mortal Combat» singari o'yinlarni o'ynagan va undagi holatlarni hayotda sinab ko'rmoqchi bo'lgan.

1999-yil. Amerikaning Kolorado shtatidagi Litlton shahrida yashovchi Erik Xaris va Villan Klebold bitiruvchi o'quvchilar 12 nafar maktabdoshi va o'qituvchisining hayotiga zomin bo'lishgan va o'z jonlariga qasd qilishgan. Tekshiruvlar ularning ashaddiy virtual o'yinlar ishqibozi bo'lib, o'yinlarni guruhlariga

bo'lingan holda bir-biriga qarshi o'ynaganliklarini ko'rsatdi.

2007-yilning aprel oyida 14 yoshli o'smirning shafqatsiz qotillikni sodir qilishi vahshiylikka asoslangan kompyuter o'yinlarining ta'siri ekanligini uning onasi ta'kidlab o'tgan. 2007-yilning iyulida umrbod qamoq jazosiga hukm qilingan Styuart Xarling hamshira Sherli Mossga hech bir sababsiz 72 marta pichoq sanchib o'ldirgan.

Bunday noxush voqealar haqida yozish biz uchun ham juda og'ir. Lekin butun vujudi bilan virtual olamga sho'ng'ib ketayotgan ayrim o'smirlarimizga saboq bo'lar, degan umidimiz ham yo'q emas.

Psixologlarning fikriga ko'ra, bola o'tkir to'qnashuvlar, qonli sahnalarga boy o'yinlar ta'siriga tez tushadi va o'zini idora qila olmay qoladi.

Psixolog Shahnoza MUHAMMADIYEVA bu haqda shunday deydi:

– Aksariyat hollarda, o'ziga, qobiliyatiga ishonmaydigan yoki oiladagi nizoli muhitdan charchagan bolalar kompyuter o'yinlariga tez berilishadi. Ular hayotda erisha olmayotgan narsalari tufayli kelib chiqqan alamzadalikni o'yindagi yutuqlari orqali yo'qotmoqchi bo'ladi. Ammo vahshiy va zo'rvonlikka asoslangan o'yinlar ulardagi alamzadalik tuyg'usini berahmlik va shafqatsizlikka aylantirib qo'yadi. Oqibatda, ular xudbin va qaysar bo'lib qolishadi. Darslarni o'zlashtirishda ortda qoladi, jamoat ishlaridagi faolligi susayadi, fikru xayoli pul topish va o'yin o'ynash bilan band bo'ladi. Qolaversa, qilich, qalqon, harbiy qurollar ishtirokidagi bunday o'yinlar bolaning ruhiyatini zo'riqtiradi, undagi hayotga bo'lgan qiziqishni so'ndiradi.

Abdurasul MURODOV, informatika fani o'qituvchisi:

– Kompyuter o'quvchilarning eng qimmatli bo'lgan vaqtini o'g'irlaydi. O'yinni kechagi joyidan davom ettirish uchun darslarni yarim-yorti tayyorlab, internet-kafega chopadi. Bu esa uning kelajagiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Dunyo mamlakatlaridagi kabi yurtimizdagi o'smirlar orasida ham «Contre Strike» eng ko'p o'ynaladigan o'yin sanaladi. Jahonning ba'zi mamlakatlari kompyuter o'yinlaridan ma'naviy zarar ko'rayotganliklari tufayli turli cheklavlar qo'yishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, Fransiyada bir qancha o'yinlarning ijtimoiy ahamiyati past deb topilib, ularning savdosi ta'qiqlangan. Braziliyada zo'rvonlik sahnalari bo'lgan 6 ta o'yin real hayotda shafqatsizlikka undagani uchun man qilingan.

Avstraliya hukumati zo'rvonlik va vahshiy lavhalarini tufayli «Grand Theft Auto 3» o'yinini o'ynashni taqiqladi...

Matbuot va axborot agentligi, tegishli davlat, nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan mazkur qonun loyihasi yuqoridagi kabi noxush holatlarning oldini olish yo'lida munosib qadam bo'ldi. Shunday ekan, azziz o'quvchilar, endi siz ham kompyuter va internet zallariga borishdan avval sizga nima kerakligini yaxshilab o'ylab ko'ring.

Saida IBODINOVA.
Z. NISHONOVA olgan surat

Bugungi kunda intiluvchan tengdoshlarimizning bir emas, bir necha tilni mukammal bilishlari hech kimni ajablantirmay qo'ydi. O'qiyman, o'rganaman, deydiganlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan yurtimiz yoshlari shunday bo'lishi ham kerak-da!

Havas

TO'RT TILNI BILADIGAN QIZ

Farg'ona shahridagi Yormozor akademik litseyida tahsil olgan Navro'za Aslonova ana shunday zamonasiga munosib yoshlarimizdan. U o'z ona tilidan tashqari ingliz, rus, nemis, tojik tillarida bemalol so'zlasha oladi.

Navro'za litseyda a'lo baholarga o'qish bilan birga, tadbirlarda ham faol ishtirok etadi. «Kelajak ovozi», Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti uchun o'tkazib kelinayotgan tanlovlarning respublika bosqichi ishtirokchisi hamda «Kamalak» bolalar tashkiloti faollaridan biridir. 2010-yili Germaniya elchixonasi tomonidan o'tkazilgan nemis tili bo'yicha «Ifodali

o'qish» tanlovida faxrli 2-o'rinni egalladi. 2011-yil «Futbolning hayotimdagi o'rni» mavzusidagi xalqaro insholar ko'rik-tanlovida yozgan inshosi 800 ta ijodiy ishlar orasida «Eng yaxshi» deb e'tirof etildi. 2012-yilda Germaniyaning yurtimizdagi elchixonasi tomonidan suratga olingan «Eng yaxshi sayohat» filmida bosh rolni ijro etdi. Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, bir necha bor chet davlatlaridagi o'quv kurslarida bilimini oshirdi. Shuningdek, yana ko'plab katta-kichik tanlovlarning g'olib va sovrindori bo'ldi. Turli mavzulardagi maqolalari yurtimiz nashrlaridan tashqari Germaniyada

chop etiladigan «Vitamen de» jurnalida ham nashr etilib turadi.

Navro'za yosh bo'lishiga qaramay, «Musiqqa yordamida chet tillarini o'rganish» mavzusida ilmiy ish yozdi va olti tilga tarjima qildi.

– Bizga ko'rsatilayotgan e'tibor va ishonchni oqlash hissi har bir tengdoshim qalbida jo'sh ura kerak, – deydi u. – Men ham Vatanimizni dunyoga yanada yaxshiroq tanitish maqsadida tariximiz, madaniyatimiz, urf-odatlarimiz haqidagi kitoblarni chet tillariga tarjima qilmoqchiman.

Erishgan yutuqlari bilan chegaralanib qolmay, yana ko'proq tillarni o'rganishga



bel bog'lagan iqtidorli tengdoshimizga havas qilsak arziydi.

Sohibjon HOTAMOV,
Farg'ona viloyati,
Buvayda tumani

BU ASARNI O'QING!



S. FARMONOV va Z.MO-MINOVA chizgan rasmlar

Aziz gazetxon bolalar, o'qituvchi bo'lganim uchun ham taniqli adibingiz Erkin Malikning «Bolaligim ertaklari» asarini diqqat bilan o'qib borishingizni tavsiya qilaman. To'g'ri, hozirgi taraqqiyot, kompyuter, internet zamonida o'tgan asrda qashshoqlikda, qora mehnatda kechgan sodda va oddiy hayot sizlar uchun g'alatiroq tuyulishi mumkin. Lekin asarni o'qiy boshlaganingiz sari uning ruhi, hayajoni, zavqi sizni rom etadi. O'zingizni butunlay boshqa bir dunyoga kirib borayotgandek his qilassiz. Mustaqil, ozod diyorimizga bo'lgan mehringiz yanada ortib, beixtiyor o'zingizni intihon qilib borassiz. Kitobda o'tgan asrning qirinchii yillarida sodir bo'lgan va tarixdan ikkinchi jahon urushi deb nom olgan davr bolalari, urushning xalqimiz boshiga solgan kulfatlari, shunday bir og'ir damlarda

ham inson o'zini yo'qotib qo'ymasligi lozimligi, bunda unga halollik, poklik, mehnatsevarlik, ezgulikka intilib yashash kabi fazilatlar qo'l kelishi uqitiriladi. Asar qahramonini yaxshi ko'rib qolasiz, u bilan yashab, taqdiriga kuyuna boshlaysiz.

Asarning qayerlaridir juda ko'p insonlarning, jumladan, mening ham hayotimga o'xshab ketadi. Otam rahmatlik urushdan nogiron bo'lib qaytgan edilar. Bir umr yog'och oyoqlarda turib, maktabda o'quvchilarga dars berdilar. Hali-hanuz yog'och oyoqning g'ijirlashi qulog'imga eshitiladi.

Kitobning yana bir jihati onaga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatdir. Hech biringiz onajoningizni yo'qotib qo'yishni tasavvur qila olmassiz. Ammo kitob qahramoni otasini urushga kuzatish to's-to'polonida vokzalda onasini yo'qotib qo'yadi va to'rt yoshida tirik yetim bo'lib qoladi. Bu holatlar o'ta ta'sirli, hayajonli tasvirlangan.

Xullas, bu kitobni o'qigan sari ota-onangizga, atrofingiz odamlarga, o'rtog'ingizga mehringiz jo'shib boraveradi. Hatto dasturxonadagi noz-u ne'matlarga ham boshqacha nigoh bilan qaray boshlaysiz, savob nima, uvol nima, anglab borassiz...

Yorqinoy OMONOVA,
oliy toifali o'qituvchi

Erkin MALIK

BOLALIGIM ERTAKLARI

(Qissalar)

U QANDAY BOLALIK EDI?

Farzandlarim yosh, o'yinroq paytlar edi. U vaqtlarda hozirgidek kitoblar, qo'sha-qo'sha telekanallar, kompyuterlar qayda deysiz? Kech kirdi deguncha, ertak aytib bering, deb xarxasha qilishardi. Albatta, uyqu oldidan devlar, jinlar, ajdarholar haqidagi ertaklarni aytib bo'lmasdi. Tushlariga kirib, bosinqirashlarini xohlamasdim. Bundayroq ertaklarni esa aytaverib, o'zinning ham ko'nglimga tegib ketgan edi.

Kunlardan bir kun tavakkal qilib bolaligim haqida ertak boshlab yubordim. Bu ertak uzoq davom etgani, tinglovchilarim kech bo'lsa ham uxlamay, ishdan kelishimni sabrsizlik bilan kutganlari esimda. Albatta, mening ertaklarimni og'izdan og'izga o'tib yuradigan mashhur ertaklarga qiyoslab bo'lmasdi. Ular mening nazarimda har bir inson hayotida kechishi mumkin bo'lgan oddiy voqealar edi. Lekin ta'siri boshqacha bo'layotganini sezardim. Tinglovchilarim kundan kunga bosiq, mulohazali, kattalarga e'tiborli, ayniqsa, non, osh-ovqat, kiyim-kechaklarini qadrlaydigan bo'lib borardilar...

Hash-pash deguncha dunyo-yu dun bir aylandi-yu, nevaralar dunyoga

keldi. Endi nevaralarimning bolaligi na bobosining, na ota-onasining bolaligiga o'xshaydi. Bo'sh vaqtlarini bekor o'tkazishga qo'yamaydigan narsalar chor-atrofta to'lib-toshib yotibdi. Internet-kafe, kompyuterlar deysizmi... Yana allambalolar, hatto qo'l telefonigacha... Biroq, nevaralarimga ham bolaligimni gapira boshlasam, hamma narsani chetga surib, og'zimga qaraydigan bo'lib qolishdi. Ko'z qarashlaridan sezaman: «Nahotki shunday bo'lgan?» Yoshim bir joyga borganda, shuni bildimki, biz keksalar o'z bolaligimiz xotiralarini o'zimiz bilan olib keta olmas ekanmiz. Ajabo, bizning bolaligimiz qanday o'tgan ekan?

ACHA XOLA VA RADIOKARNAY

Mening uzundan uzun kunlarim shunday boshlanardi... Hovlimizdagi qari marvartak tutga mixlangan, o'zidan o'zi tinimsiz javrab yotadigan bir mo'jiza bor edi. Uni biz «karnay» deb atar edik. U hamma xonadonlarda ham bo'lmasdi. To'g'rirog'i, qari-qartanglar xohlashmasdi. Karnay kirgan joyga farishtalar kirmaydi, deyshardi. Rostdan ham karnay bir gapga tushib ketsa, ovozin o'chirib bo'lmasdi. Pakkasi shaharning allaqaysi joyida edi. Bir kuni

qo'shnimiz Acha xolanikiga kirib, karnaydan urushga ketgan askarlarni gapiryapti, desam, «Meniyam askar bolamni gapirib qolarmikan, j-a-a hayallab ketdi-ku, bo'ying cho'zilgur», deb boshlariga yopinchiqlarini tashlab, shoshapisha menga ergashdilar. Xola, erkagi bor uy, deb biznikiga chiqmas, karnay haqida mendan eshitgan edilar-u, ammo o'zini ko'rmagan edilar. Hovliga kirganimizda karnayda ayol kishi gapirardi. Avvaliga xola hushyor tortib, ovoz egasini qidirib qoldilar. U yoq-bu yoqqa alangladilar. Keyin ovoz marvartak tut barglari orasidan eshtilayotganini fahmlab, yopinchiqlari tagidan shu tarafga mo'ralay boshladilar. Ajabmi, deb tutning atrofini yana bir bor aylanib chiqdilar. Bo'lmasa karnay qop-qorayib, shundoqqina peshanalarida turibdi. Ovoz qora gardishdan chiqayotganini tasavvur qila olmayaptilar. Men qotib-qotib kulaman. U kishi menga parvo qilmaydilar. Gapirish navbati erkak kishiga kelib qoldi-yu... Xola: «Voy, o'lay», deb yuzlarini to'sib oldilar-da, tut tagidan nari keta boshladilar. Shu payt qo'shiq boshlanib qoldi: «Hilila yorim, hilila...» Men Acha xolamga karnayni ko'rsatib tushuntirmoqchi bo'laman. Xola tushunish u yoqda tursin, eshitishni ham xohlamadilar. Orqalariga qaramay shoshapisha chiqib ketdilar. Aytishlaricha, uylariga chiqqandan keyin chatoq bo'pti. Namoz o'qisalar, nuqul: «Hilila yorim, hilila...», deb yuborarmishlar. Xola mendan anchagacha xafa bo'lib yurdilar. Biznikiga chiqqanlarining boshi ham, oxiri ham shu bo'ldi. Ammo karnay men uchun bir hamroh edi. U sahar mardondan ajib bir ovozda erkalab, «Tu-rin-g... tu-rin-g... tu-u-rin-g...», deya sizensirab uyg'otgandek bo'lardi. Ovozini eshitib, allanechuk bo'lib ketaman. Nimaga deganda, men bechorani Acha xolam-u shu karnaydan bo'lak hech kim sizlamaydi. Karnayning ovozigaldayoq odamni xayollarga toldirib, yig'loqi bir qo'shiq - madhiya ulanadi: «Yasha-a-a,

ey ulug' rus xalqi, buyuk og'amiz...» (U paytda biz Rossiyaga qaram edik. Har kungi hayotimiz shu qo'shiq bilan boshlanib, shu qo'shiq bilan yakun topardi). Birdan qo'shiqqa mahalladagi itlarning akillashi-yu xo'rozlarning qichqirig'i qo'shib, hammasi aralash-quralash bo'lib ketardi. Ko'zlarimni yirib-yirtib, erinibgina tepamdagi bir ko'zli darchaga tikilaman. Zax bosgan hujranga tashqaridan xira bir yorug'lik mo'ralaydi. Hujram hali qop-qorong'i... Kechqurun kiyimlarimni yechmayoq uxlab qolganman. Yechinib yotishga ham kuchim qolmagan. Yotganman-u qotganman. Ko'ylagimning o'qlog'idek o'qlog'idek choklari (uni yirtilganda o'zim yo'rmab olganman-da) kechasi bilan badanimga botgan, endi o'sha joylar qichitar edi. Ayniqsa, qachonlardir itpashsha chaqqan joyim qichib, toqatimni toq qiladi. Chiday olmay qolaman... U savil kuragimning tagida. Qo'lim unaqasigayam, bunaqasigayam yetmaydi. Qani endi iloji bo'lsa-yu, ikkita qo'lni bitta qilib mazza qilib qashlab, xumordan chiqsang. Oxiri eshikning kesakisi jonimga oro kiradi. Qichishgan joyimni naq qirrasiga jazilatib bosamanda, beshiktebratar bo'lib ketaman. Lekin shu payt bir nima «chirt» etib ketadi. Azbaroyi rohatdan ko'zlarim yumilib, qirq yamoq ko'ylagim qirq birinchi joyidan yirtilgan bo'ladi. Ichimga sovuq epkin o'rmalab kiradi. Bu meni yanayam tashvishga soladi. Ayachamga meni kaltaklash uchun yana bir bahona bo'ladi. Hafsalam pir bo'lib, esnay-esnay hovliga chiqaman. Kuz havosi. Salqin. Ammo osmon to'la yulduz. Ular tomlargacha tushib kelgan, yaqinginadan milt-milt qiladi. «Yotatur, tong otishiga hali bor», degandek bo'ladi. Iliqqina o'rin-ko'rpmam ko'zimga ko'rinib ketadi. Yana ozroq yotsammikan? Yo'q. Dong qotib uxlab qolishdan Xudo saqlasin. Ayacham meni naqd o'ldirib qo'ya qoladi.

(Davomi bor)



Ta'tilda sport bilan shug'ullanmay bo'ladimi? Lekin orangizda yozni kompyuter o'yinlarini o'ynash, televizor tomosha qilish-u ko'cha changitish bilan o'tkazib quborayotgan bolalar ham topiladi-a? Poytaxtlik tengdoshingiz Abdurazim Abdurahmonov kabi suzish mashg'ulotlariga qatnab, ham salomatlikni mustahkamlash, ham miriqib hordiq chiqarishga nima deysiz?!

mazkur sport kompleksiga borsangiz, sizning ham bir emas, bir nechta sport turlari bilan shug'ullanginiz kelib ketadi.

Yunusobod tumanidagi 9-maktabning 7-sinf o'quvchisi Charos Mahmadiyeva besh yildan

SPORT BILAN O'TSA YOZ, SOG'LIQ HAM BO'LADI SOZ

Qahramonimiz ta'til boshlanishi bilanoq «Jar» sog'lomlashtirish sport kompleksi qoshidagi suzish to'garagiga qatnay boshlabdi. Chilonzor tumanidagi 217-maktab o'quvchisi Azamatxo'ja Abdurahmonov esa ikki yildan buyon ushbu sport majmuasiga qatnab, murabbiyi Mirzo aka G'aniyevdan suzishni o'rganmoqda. Ta'tilda esa sportning futbol turi bilan ham shug'ullanmoqda. To'g'ri-da, barcha sharoitlar yaratilgan, yigirma xil sport to'garaklari ertalab soat 8:00 dan kechki 21:00 gacha faoliyat yuritayotgan

buyon ushbu maskanda sportning tennis turi bilan shug'ullanar ekan. Mutaxassislarning fikricha, tennis o'smirlarning bo'yini o'stirib, gavdasining to'g'ri rivojlanishini ta'minlaydi.

Yozni sport bilan soz o'tkazayotgan ushbu tengdoshlaringizga havasingiz kelayotgandir? Unday bo'lsa, Siz ham shu kabi maskanlarga oshiqing. Zero, bugun yurtimizning barcha go'shalarida sport majmualari mavjud, sharoit-u imkoniyatlar bisyor.

Sayyora QODIROVA.

Zuhra NISHONOVA olgan suratlar

«FUTBOL – JON-U DILIM»

– deydi Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi 73-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Abdumurod Kenjayev.



U bolaligidan sportning futbol turi bilan muntazam shug'ullanib keladi.

– Viloyatimizda men kabi sportsevar o'quvchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, futbol maydonlari-yu sport inshootlarining qayta ta'mirlanib, foydalanishga topshirilishi biz uchun ayni muddao bo'ldi, – deydi Abdumurod biz bilan suhbatda. – Futbol ham boshqa sport o'yinlari singari jiddiy o'yin hisoblanadi. Jamoadoshlarimiz bilan bir-birimizni tushungan holda, hamjihatlikda o'ynamasak, raqib jamoa ustidan g'alaba qila olmasligimiz tayin. Shuning uchun ham murabbiyimizdan to'pni qanday uzatish, uni raqib darvozasi sari qanday yo'naltirishga oid yo'l-yo'riqlar olmoqdamiz. Mashq qilish qanchalik mashaqqatli bo'lsa, o'yinda shunchalik oson bo'ladi. Bu barchamizning asosiy shiorimizga aylangan.

Bugun sportning deyarli barcha turida qo'llari baland kelayotgan yosh chempionlarimiz yurtimizga shoda-shoda medallar bilan qaytmoqda. Surxon vohasining alpkelbat o'g'lonlaridan biri bo'lgan Abdumurod ham kelgusida yurtimizdovrug'ini dunyoga taratadigan umidli sportchilarimizdan bo'lishiga ishonamiz.

Manzura

UBAYDULLAYEVA



FUTBOLIMIZ KELAJAGI

Yaqinda Nukus shahrida «Futbolimiz kelajagi» sport musobaqasining mintaqaviy bosqichi bo'lib o'tdi.

«Mahalla» xayriya jamoat fondi va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi yili an'anaviy kelinayotgan bosqichida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Buxoro viloyatlaridan 9–14 yoshli sportchilar ishtirok etishdi.

Musobaqada 9–10 yoshdagi guruhlar o'rtasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumanining «Turkiston», 11–12 yoshli to'psurarlar o'rtasida Xorazm viloyatining «Binokor», 13–14 yoshli futbolchilar o'rtasida Buxoro viloyatining «Chorbaxossa» jamoasi g'olib bo'ldi va musobaqaning Toshkentda o'tadigan mamlakat bosqichiga yo'llanma oldi.



Namangan shahridagi 23-Olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabida

400 nafarga yaqin o'g'il-qiz suv polosi, suzish, suvga sakrash va eshkak eshish

bo'yicha mahoratini oshirmoqda. Ularga saboq berayotgan 17 nafar murabbiyning barchasi tajribali, o'z kasbining ustalaridir.

Maktabda yaratilgan shart-sharoit, mashg'ulotlarning muntazam olib borilishi o'z samarasini berayotir: maktab tarbiyalanuvchilari 2012–2013-yillarda suv sporti bo'yicha o'tkazilgan mamlakatimiz chempionatida 9 oltin, 49 kumush, 45 bronza, xalqaro musobaqalarda 30 oltin, 14 kumush, 31 bronza medalni qo'lga kiritishdi. Murabbiy Diana Shamsuddinova o'z shogirdlari bilan haqli ravishda faxrlanadi. Chunki ularning ko'pchiligi suv sporti bo'yicha O'zbekiston yoshlar terma jamoasi a'zolaridir.



SHOGIRDLARIDAN MAMNUN

Shoh MUHAMMAD

JONIVORLAR JOLAMI

Aziz bolajonlar! Eshitgan bo'lsangiz kerak-a, Avstraliyaga birinchi bo'lib borgan yevropalik sayyohlar qornidagi maxsus xaltachada bolasini olib yurgan, sakrab harakatlanadigan g'alati jonivorni ko'rib hayratlanishgan. Shunda bir sayyoh mahalliy aholidan «Bu hayvonning nomi nima?», deb so'raydi. Ulardan biri, kenguru, deb javob beradi. Aslida u, gapingizga tushunmadim, degan edi. Biroq, sayyohlar jonivorning nomi kenguru ekan, deb tushunishadi.

Shu tariqa, bugun sizga hikoya qilmoqchi bo'lgan jonivorimizning nomi kenguru bo'lib qoladi.

Kenguru – xaltalilar turkumining eng yirik vakili. U Avstraliya qit'asida, Yangi Gvineya va Tasmaniya orollarida yashaydi. Avstraliyadagi orollardan biri ham uning nomi bilan atalar ekan. Ba'zan gigant jonivor deb ataluvchi kenguruning bo'yi ikki metrga yetadi. Og'irligi esa bir yarim kilogrammdan to'qson kilogrammgacha bo'lishi mumkin.

Kenguru o'simlikxo'r jonivor bo'lib, ildizlar, o't va barglar bilan oziqlanadi. Uning old panjalari orqa panjalariga nisbatan ancha kuchsiz va kichik bo'lib, inson qo'lga o'xshab ketadi. Navbatdagi ma'lumotimiz esa sizni hayratlantirishi tabiiy. Ishonasizmi, bu jonivor

bir deganda uch metr gacha balandlikka sakrab, o'n uch metr gacha masofani bosib o'tishi mumkin. Ya'ni, u soatiga ellik kilometr tezlikda harakatlanadi. Shuning uchun uni, kuchli atletikachi jonivor, deb ham atashadi. Ammo kenguru uzoq vaqt yugura olmaydi.

Shunday yirik jonivorning bolasi esa nihoyatda mitti holda, atigi uch santimetr kattalikda ko'zi yumuq tug'iladi. Tug'ilgan zahoti onasining xaltasiga emaklab kirib oladi. Qiziq, u qachongacha onasining xaltasida yashaydi, deysizmi? Odatda kenguru bolasi maxsus xaltachada oltmish besh kunga yaqin yashaydi. Keyin esa xaltachadan atrofqa qarab, tashqariga chiqa boshlaydi.

ZUBAYDA tayyorladi

UYALIB QOLDI

Hech kimga gap bermasdan, Maqtanchoqlik qilar Esh. Deydi: «Men a'lochiman, Kundaligim to'la «5».

Kundaligim ochgandik, Sahifalar to'la «3». Hatto «2»ni ko'rdik, «4», «5»ga kelmadik duch. Aziza bilan O'tkir, Aybin yuziga soldi. Yolg'onlari fosh bo'lib, O'zi uyalib qoldi.

Shuning uchun, do'stlarim, Yolg'on gapirib yurmang. Ko'pchilikning oldida, So'ngra, qizarib turmang.

Shahzoda
FAZLIDDINOVA,
Surxondaryo viloyati,
Sariosiyo tumanidagi
3-umumta'lim
maktabi o'quvchisi



TOPISHMOQLAR

Qanotsiz ko'kka uchdim,
Moviyy samoni quchdim.
Qaygadir uchdi hushim,
Qarasam, ekan...



Shoshganda, tez qimirlaydi,
Shoshmaganda, imillaydi.



Qarang, oppoq bir quti,
Yo'q birorta teshigi.
Ichiga qaray desam,
Yo'q tuynugi, eshigi.



Yozilganda dasturxon,
Hozir-u nozir shu on.
Noz-ne'matdan totinar,
Chaqirilmagan u «mehmon».

FERUZA

QIZIQARLI MASALALAR

1. Sotuvchidan savatdagi olmalarining soni nechta ekanligi so'ralganda, u olmalari sonini bilmasligini, biroq ularni 2 tadan, 4 tadan, 5 tadan, 6 tadan, 7 tadan qo'yib chiqqanida, doim 1 ta olma ortib qolishini aytdi. Sotuvchining savatida nechta olma bo'lishi mumkin?

2. Uch qutida 10 dona qalam bor. Birinchi qutida ikkinchisiga qaraganda 4 ta kam va uchinchisidan 5 dona ko'p qalam bor. Har qaysi qutida nechta donadan qalam bor?



Aziz qizlarjon, shu kunlarda ota-onangiz, buva va buvijonlaringizni iftorlikda qanday shirinliklar-u noz-ne'matlar bilan siylasak ekan, deb o'ylab yurgandirsiz? Quyidagi tavsiyamiz Sizga qo'l keladi, degan umiddamiz.

LOCHIRANI YEMABSIZ...

Avvalo, 1 stakan sut 1 dona tuxum bilan iylanadi. So'ngra, unga bir chindim tuz va 1 stakan eritilgan qo'y yog'i yoki sariyog' qo'shib, aralashtiriladi. 1 kg un qo'shib xamir qoriladi va sochiqqa o'ralgan holda 10-15 daqiqa tindiriladi. Tingan xamirdan o'rtacha kattalikda zuvalachalar yasab, qalinligi 1 sm qilib yoyiladi va qirg'oqlari chiroyli qilib chimchilab chiqiladi. Yuziga chakich urib, tuxum surtiladi. Dastasi olingan, yog'langan tova yoki tunuka laganga joylangan lochira qizdirilgan duxovkada o'rtacha olovda qizarguncha pishiriladi. Yoqimli ishtaha!



NARGIZA tayyorladi


O'qituvchi: – Bolajonlar, shifokorlarning aytishlaricha, o'smir yoshdagilar baliqni ko'p iste'mol qilishi kerak ekan.

O'quvchi: – Ustoz, shunda o'z-o'zidan suzib ketadigan bo'lami?



Ona o'g'liga dedi:

– Sattor, nega qo'shnmiz Dilmurodning urding? Onasi menga shikoyat qildi.
– U meni bir yil ilgari tuya degandi.
– Shunga endi urasanmi?
– Bugun tuyani hayvonot bog'ida ko'rdim-da...



GULCHEHRA

Ushbu sonda Respublika rassomlik kolleji o'quvchilari Zulayho MO'MINOVA, Mohira MUHAMMADJONOVA chizgan rasmlardan foydalanildi.

8

29-iyul 2013



Bosh muharrir
Feruza JALILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Quroqboy ERGASHEV,
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA
Rassom
Feruz
MATYOQUBOV
Dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Musahhah
Nargiza
ABDULLAYEVA

Manziliimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 47 763
Buyurtma N: J 7686

Muassislari:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi
Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.